



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз

АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2019
1/3**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

А.Р. МАРАХИМОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ғ.И. БОТИРОВ – ф-м.ф.н.

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Ҳ. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Ганиева М.Ҳ. – соц.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Рўзиев Р.Ж. – с.ф.д., проф.

Тўхтаев Х.П. – ф.ф.н., доц.

Болтабоев Ҳ. – фил.ф.д., проф.

Маматов А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Джумабаева Ж.Ш. – фил.ф.д., проф.

Ширинова Р.Х. – фил.ф.д., проф.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2019

МУНДАРИЖА ТАРИХ

Алмардонов О. Ўзбекистон ва Туркия ўртасидаги халқ дипломатиясининг айрим жиҳатлари.....	3
Аҳмедов Б. Ўзбекистонда қорақўлчилик соҳасида мутухассислар тайёрлашнинг йўлга қўйилиши борасида амалга оширилган ишлар.....	8
Бобожаонов И. Мустақиллик йилларида маҳалла институтининг ҳуқуқий асосларини шаклланиши ва ривожланиши.....	11
Бойсариев М. Ўзбекистонда демографик тадқиқотлар тарихшунослигининг илмий назарий таҳлили.....	15
Ғойибназаров И. “Ҳарбий коммунизм” даврида Туркистонда солиқ тизими ва унинг оқибатлари.....	20
Даминов Н. Мустақиллик йиллари Самарқанд вилоятида иқтисодий ислохотлар жараёнлари ва хорижий инвестицияларнинг ҳудуд тараққиётидаги ўрни ва истикболлари.....	24
Кочкарова Э. Хива саройи қошидаги янги турдаги мактаб.....	31
Хатамов Т. Мустақилликнинг дастлабки йилларида Ўзбекистонда таълим тизими: муаммолар, тажриба ва таҳлил.....	35
Юлдашев С. Талос жангининг Фарғонага таъсири.....	39
Яқобжанов Ж. Ўзбекистон мустақиллик даври тадқиқотларида Қўқон хонлигининг Россия империяси билан дипломатик алоқаларининг ёритилиши.....	44

ФАЛСАФА. ПЕДАГОГИКА. МЕТОДИКА. СОЦИОЛОГИЯ

Абдуназаров С. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда нодавлат ёшлар ташкилотларининг роли.....	49
Абдусаттарова С. Моделлаштириш ва унинг манбалари: тарихий-фалсафий таҳлил.....	56
Абсатторов Б. Ахлоқ, ахлоқий мезон ва ахлоқий меъёр ҳақидаги қарашлар эволюцияси.....	59
Агзамходжаева С., Кубатов Ш. Баркамол авлод – ижтимоий идеал ва ижтимоий-маънавий тараққиёт мезони.....	65
Алимова Ф. Проблема формирования информационных компетенций у будущих педагогов химии.....	69
Артиков А. Малакали футболчиларда техник усулларнинг мақсадли аниқлигини тестлар орқали таҳлил қилиш.....	73
Атавуллаев М. Ҳуқуқий кадрларнинг шаклланишига ғоявий-мафқуравий ва маънавий-ахлоқий императивларнинг таъсири.....	78
Ахатов Л. Жомийнинг тасаввуфий қарашларида таҳаммул ва иртибот тушунчаларининг таҳлили.....	82
Болтаев А. 15-16 ёшли волейболчиларда айрим жисмоний ва функционал кўрсаткичларни турли юктамалар таъсирида ўзгариш динамикаси.....	87
Бўронов С. Ўзбекистон ва Афғонистон муштарак муносабатларида янги саҳифа.....	90
Икромова К., Мирходжаева Д., Абдуллажонов Ш. Касбий компетентлик – инновацион таълим жараёнининг асоси ..	94
Жалолова П., Одилов Ё. Олий таълимда «Квант механикаси»га оид лаборатория машғулотларида ахборот технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш.....	98
Латипов Р. Ҳаракатлар стратегияси – халқ турмуш фаровонлигининг муҳим омили.....	102
Мавлонова К. Адабий тушунчаларни она тилидан ўтиладиган мавзулар билан интеграциялаш асосидаги таълим мазмуни.....	105
Маманов Ж. Менталитет тушунчаси ва уни ўрганишнинг назарий-методологик асослари.....	110
Mamatova Kh. Creative approach to teaching English as a foreign language.....	115
Самадова Д. Ўқувчи-талаба шахсига йўналтирилган таълим технологияси мазмунида дарс таҳлилининг ҳолати.....	123

ФИЛОЛОГИЯ

Abdurakhmonova N., Turdialiyev A. The use of morphological ontological models for turkish-uzbek machine translation.....	128
Alautdinova K. Business discourse as a complex multi-level phenomenon.....	133
Базаров И. Лингвотаълимшунослик соҳасида терминологик бирликларнинг шаклланиш тарихи ва ривожланишдаги асосий омиллар.....	137
Давлатова М. Резултативлик ҳаракат тарзи тури сифатида.....	142
Zakirova Kh. Terminology as a research object of linguistics (in the example of construction).....	146
Zoxitova N. Muhojirlar mavzusini yoritishda OAVning roli (onlayn nashrlar misolida).....	148
Ибрагимов Ш. Аудиовизуал журналистикани ўрганишнинг баъзи бир масалалари.....	153
Максудова Ҳ. Республикаимзнинг тиббиёт ва фармацевтика йўналишларидаги олий таълим мусасаларида инглиз тилини ўқитишда қийинчиликлар ва имкониятлар.....	157
Мўминова Н. Темурийлар даври тарихига оид манбаларда антропонимларнинг туркий қатлами.....	162
Мухаммадиева М. Semantic peculiarities of english proverbs on human character.....	166
Отақулов Н. Оламнинг лисоний манзарасида лексик ва фразеологик мезуративлар.....	169
Раҳматуллаева У. Национально-культурные особенности паралингвистических средств английского и узбекского языков.....	175
Сагидуллаева З. Амангелди Халмуродовнинг «Қисматдош» қиссаси композициясининг бадий-эстетик хусусиятлари.....	179
Saidaxmedova O. Koreyslarda o‘zbek tili o‘zlashtirilishi masalasi.....	183
Тажибоева Д. Ранг – тимсол яратиш воситаси.....	191
Tosheva N. Isajon Sultonning “Munojot” qissasidagi folklor unsurlarining poetik vazifalari.....	195
Ўсаров И. Ҳозирги замон тилшунослигида қўшма гаплар назарияси ва синтактик стилистика муаммоларининг ўрганилиш даражаси.....	200
Қосимова Г. Мемуар асарда муаллиф образи қирралари.....	204



Odinaxon SAIDAXMEDOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
E-mail:saidaxmedova92@mail.ru

KOREYSLARDA O'ZBEK TILI O'ZLASHTIRILISHI MASALASI

Annotatsiya

Tilni egallashda til o'zlashtirish va til o'rganish masalalari turlicha bo'lib, ular ona tili hamda chet tili ta'limida muhim ahamiyatga ega. Til o'zlashtirish ona tili bilan bog'liq bo'lib, tovushlar, so'zlar, grammatik ko'rsatkichlar, gap tartibini o'zlashtirishning muayyan tartibini izohlaydi. Bu tartib tilning chet tili sifatida o'rganilishida asos vazifasini bajaradi. Tabiiy tartib gipotezasi, ya'ni o'zbek tilidagi grammatik shakllarning tizimli tartibda o'zlashtirishda muayyan qo'shimchani boshqa qo'shimchalarga qaraganda avvalroq o'zlashtirilishi xususida dastlabki tajriba o'tkazilganligi aks ettirilgan. Morfemalarning o'zlashtirilish jarayoni amaliy tilshunoslik hamda psixolingvistikada qiziqarli masalalardan biridir. Maqolada Tabiiy tartib gipotezasini o'zbek tili uchun tekshirish maqsadida o'zbek tilini chet tili sifatida o'rganayotgan 13 ta koreyalik til o'rganuvchilar bilan tajriba o'tkazilganligi aks etgan. Tajriba O'zbekistonda, o'zbek tili ona tili hisoblangan muhitda o'tkazildi hamda natijalar umumlashtirildi. Tajriba ishtirokchilaridan berilgan gaplarni koreys tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish hamda o'zlari tomonidan amalga oshirilgan tajribani baholashlari so'raldi. Olingan natijadan o'zbek tilida grammatik qo'shimchalarning aniqlik darajasi tartibi aniqlandi.

Kalit so'zlar: til o'rganish, til o'zlashtirish, Tabiiy tartib gipotezasi, biheviyistik yondashuv, kognitiv yondashuv, tajriba, respondentlar, aniqlik tartibi.

THE ISSUES OF THE UZBEK LANGUAGE ACQUISITION AT KOREAN LEARNERS

Annotation

The issues of language acquisition and language learning are quite different and they play an important role in L1 and L2 education. Language learning is related to the native language and explains specific sounds, words, grammar and sentence structure. This order is the basis of learning any foreign language. Particularly, the Natural order hypothesis, that is, in the case of systematic assimilation when certain Uzbek grammar forms are learnt earlier than other grammatical additions. The issue of natural order in acquiring morphemes in Uzbek has been an interesting topic in psycholinguistics and applied linguistics. This article depicts the outcomes of the experiment carried with 13 Korean learners of Uzbek as a second language to test Natural Order Hypothesis in the Uzbek language. Research on this issue has been conducted in Uzbekistan where the target language functions as first language and findings have been generalized. The participants were asked to translate the sentences from Korean to Uzbek and then were required to conduct self-evaluation of the experience. The findings serve as the frame of morpheme accuracy order in the Uzbek language.

Key words: language learning, language acquisition, Natural Order Hypothesis, behavioristic approach, cognitive approach, experiment, respondents, accuracy order.

ВОПРОСЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА У КОРЕЙСКОГО УЧАЩИХСЯ

Аннотация

Проблемы овладения языком и изучения языка весьма различны, и они играют важную роль в образовании L1 и L2. Изучение языка связано с родным языком и объясняет конкретные звуки, слова, грамматику и структуру предложений. Этот заказ является основой изучения любого иностранного языка. В частности, гипотеза естественного порядка, то есть в случае систематической ассимиляции, когда определенные узбекские грамматические формы выучены раньше, чем другие грамматические дополнения.

Развитие морфем является одним из наиболее интересных вопросов прикладной лингвистики и психолингвистики. В статье отражен результат эксперимента с 13 корейскими излучателями узбекского языка как иностранный, для проверки порядка гипотез естественного порядка. Эксперимент проводился в Узбекистане, где узбекский язык является родным языком, и результаты суммированы. Участникам эксперимента было предложено перевести слова с корейского на узбекский и оценить собственный опыт. В результате был определен порядок точности грамматических морфем на узбекском языке.

Ключевые слова: изучение языка, овладение языком, гипотеза естественного порядка, биоритмический подход, когнитивный подход, эксперимент, респонденты, порядок точности.

Grammatika ona tili hamda chet tilini o'zlashtirishda eng qiziq masalalardan biri hisoblanadi. Chet tilini o'qitish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar

egallangan til kompetensiyasini chet tilini o'rganayotgan respondentlar orqali baholaydilar. Chet tilini o'zlashtirish ta'limdagi asosiy masala – chet tili

grammatikasi o'zlashtirilishi rivojining muvofiq "tasviri"ni chizish hamda chet tili strukturasi qanday o'zlashtirilishini tekshirishdir.

Chet tilini o'rganish nazariyasini *biheviyistik yondashuv* hamda *kognitiv yondashuvning* qiyosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. 1950-60-yillarda til o'qitish va o'rganish jarayoniga biheviyistik yondashuv katta ta'sir o'tkaza boshladi. Bu qarashga ko'ra, insonning xulq-atvori qabul qilinishi, yozib olinishi hamda o'lganishi mumkin. Til o'rganish xuddi velosiped haydashni yoki pianino chalishni o'rganish jarayoniga o'xshaydi. Buni "odatning shakllanishi"deb hisoblash mumkin [1]. Bolalar ona tilini ota-onalaridan hamda enagadan (yoki bog'cha tarbiyachisi) taqlid qilish orqali o'zlashtiradilar hamda ularga berilgan ijobiy yoki negativ reaksiyalar orqali taqlidni mustahkamlab boradilar.

Biheviyistik yondashuvga ko'ra, chet tilini o'rganish ham taqlid hamda uni mustahkamlash jarayonidir, til o'rganuvchilar yangi tilni ko'chirib olish va eshitganlarini qayta takrorlash orqali o'zlashtiradilar. "Transfer – ko'chirish" bu yondashuvning eng muhim tushunchasidir. Ona tili chet tilini o'rganish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Ona tili va chet tilidagi o'xshash morfemalar "ijobiy ko'chirish"ga sabab bo'ladi va chet tilini tezroq va osonroq o'rganilishiga xizmat qiladi. Masalan, ingliz va nemis tilida gapning tartibi bir xil bo'lgani uchun til o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Tillar strukturasidagi farqlar "negativ ko'chirish", ya'ni interefensiyaga sabab bo'ladi. Ona tili strukturasi "bo'shliq" chet tilini o'rganish jarayonida yangilash keltirib chiqaradi [2]. Masalan, koreys tilida muayyan qo'shimchalarning mavjud emasligi o'zbek tilidagi shu qo'shimchalarining ularning og'zaki yoki yozma nutqida muammolar keltirib chiqarishi hamda ularning kechroq o'zlashtirilishiga olib keladi. Biroq tadqiqotchi R. Ellis chet tilini o'rganishda faqat taqlidning o'zi yetarli emas deb hisoblaydi. Misol sifatida bolalarda dastlabki til ko'nikmalari paydo bo'lgach, ularning qo'shimcha yoki so'zni o'zlar yaratishlari mumkinligi haqida yozadi [3].

Biheviyistik nazariya bilan bir qatorda kognitiv yondashuv ham mavjud bo'lib, bu yondashuvga ko'ra, til o'rganish bu – kognitiv jarayon bo'lib, ong, idrok, fikrlash, tasavvur bu yondashuvning asosiy omillari hisoblanadi. Kognitiv yondashuvda til o'rganuvchilar tilni xato, yangilash va qayta tekshirish orqali o'rganadilar va oqibatda chet tilini o'zlashtiradilar. Boshqacha aytganda, tilni sinfxonada turli o'qitish metodlari bilan o'rgangandan ko'ra uni tabiiy sharoitda o'rganish yaxshi natija beradi.

1950-yillarda til o'zlashtirish masalasida qiyosiy tahlil eng mashhur gipotezalardan biri edi. Qiyosiy tahlil gipotezasi biheviyistik yondashuvga asosan yuzaga kelgan edi, ya'ni ona tili va o'rganilayotgan chet tili o'rtasidagi farqli jihatlarni aniqlashga qaratilgan edi. Bu gipotezaga ko'ra, ona tili va o'rganilayotgan chet tilidagi o'xshash grammatik ko'rsatkichlar ularni tez o'zlashtirishga, farqlilari esa o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi. Til o'rganishda "yangilash tahlillar" o'rganish jarayonining rivoji sifatida qaralgan.

Tadqiqotchi D.Larsen-Friman bu gipotezaning nazariy hamda metodologik muammolari haqida quyidagilarni yozadi: "Qiyosiy tahlil gipotezasiga ko'ra, ona tili hamda o'rganilayotgan chet tilidagi farqli grammatik ko'rsatkichlar qiyin o'zlashtiriladi deb qaralgan, biroq shu ikki tildagi o'xshash grammatik ko'rsatkichlar har doim ham tez va oson o'zlashtirildi" [4]. Yangilash tahlillar chet tilini o'rganish jarayonini to'liq ifoda eta olmaydi, chunki ular faqat shu ikki tilda aniqlangan farqlarni o'rganish bilan chegaralanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu gipoteza chet tilini o'rganish hamda o'zlashtirish jarayonini o'zida to'liq qamrab olmaydi, chet tilini o'rganish va o'zlashtirish jarayoni yangilash tahlillariningina o'zi emas, balki yangilash tahlillar shu jarayonning kichik bir qismi sifatidagina mavjud.

1970-yillardagi qiyosiy tahlil gipotezasi bilan bog'liq muammolar yangi tizimli o'zgarish qilishga undadi. Tadqiqotchi S.Krashen Tabiiy tartib gipotezasini bu sohaga olib kirdi.

Tabiiy tartib gipotezasi – grammatik shakllarning tizimli tartibda o'zlashtirilishi bo'lib, ona tilini o'zlashtirishda muayyan qo'shimcha boshqa qo'shimchalarga qaraganda avvalroq o'zlashtiriladi. Ona tilida grammatik shakllarning o'zlashtirish tartibini aniqlash bo'yicha dastlabki tadqiqot R.Brounga tegishi. U ingliz tili ona tilisi bo'lgan 3 ta bolani kuzatdi hamda har uchala bolada ham grammatik shakllarning o'zlashtirilish tartibining bir xil ekanligini kuzatish va turli metodlar yordamida aniqladi. Unga ko'ra, ingliz tilidagi hozirgi zamon qo'shimchasi *-ing* ko'pli qo'shimchasi *-s* va fe'ning umumzamon qo'shimchasi *-s* ga qaraganda avvalroq o'zlashtiriladi [5].

Krashen taklif qilgan gipoteza chet tilini o'qitish va shu sohadagi tadqiqotlarga katta ta'sir ko'rsatdi. 1970-yillar oxiridagi ingliz tilidagi grammatik morfemalar o'zlashtirishning invariantligi esa bu gipotezaning kuchli asosga ega ekanligini ko'rsatdi.

Ona tilini o'zlashtirishda morfema tartibining aniqlanishi chet tilini o'zlashtirish sohasidagi tadqiqotlarga katta ta'sir ko'rsatdi. X.S.Dulay va M.K.Burt tabiiy tartib masalasi xuddi ona tilini o'zlashtirgandek chet tilini o'rganishga ham taalluqli ekanini ta'kidlashdi [6]. Ular 60 ta ispan tili ona tilisi hamda 55 ta xitoy tili ona tilisi bo'lgan bolalarda ingliz tilini chet tili qay tartibda o'zlashtirilishini rasmlar hamda berilgan savollarga javoblar orqali aniqladilar. Tadqiqotlarning muhim jihati ingliz tilida morfemalar o'zlashtirilishining tartibi mavjudligi, bu tartiblar R.Broun aniqlagan morfemalar o'zlashtirish bilan o'xshash ekanligi aniqlandi. Tilni chet tili sifatida o'zlashtirishda ma'lum tartibning mavjudligi haqidagi xulosalar tadqiqotchilarni shu sohada tajribalar o'tkazishga undadi. Xususan, S.Krashen ham ingliz tilni chet tili sifatida o'rganayotgan 66 ta respondent bilan ularning og'zaki produksiyasini rasm va gapda tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni so'rash orqali tekshiradi. Ingliz tilisi ona tili sifatida o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan qo'shimchalar uni chet tili sifatida o'zlashtirishda ham qiyinchilik tug'dirishi haqida yozadi.

Tadqiqotning maqsadi. Grammatik ko'rsatkichlarni o'zlashtirish tartibi ona tili hamda chet tilini o'rganish sohasiga tegishli bo'lib, o'zbek tilida morfemalarning o'zlashtirish tartibini aniqlash o'zbek tilini chet tili sifatida o'rganilishi hamda o'qitilishida grammatik ko'rsatkichlarning ketma-ketligini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilidagi morfemalar o'zlashtirishida tartib mavjud yoki yo'qligi, agar tartib mavjud bo'lsa, u qanday ekanligini aniqlash hamda shu tartibni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning ahamiyati. Tadqiqotning ahamiyati ona tilisi boshqa bo'lgan til o'rganuvchilarda o'zbek tilidagi grammatik morfemalarni o'zlashtirishda yuzaga keladigan muammo yoki qiyinchilikni aniqlash hamda o'zbek tilidagi morfemalarning o'zlashish tartibini aniqlash orqali o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish hamda o'rganish uchun asosli yondashuvni belgilashdan iborat.

O'zbek tilini o'rganayotgan koreys respondentlarining talab etilgan kontekstda

morfemalardan yanglish foydalanishi yoki morfemalardan foydalanmasligining aniqlanishi o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitilishining qiyin jihatlarining aniqlanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, morfemalarning o'zlashtirilishini tadqiq qilish, nafaqat, o'qitish uchun material tayyorlanishiga, qolaversa, o'zbek tilini o'rganayotgan koreyslarga tilning struktiasi hamda pragmatikasi haqida ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Metod. Tajriba Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti O'zbek tili markazida o'tkazildi. Unda 13 ta koreys millatiga mansub respondentlar qatnashdi. Tajriba ular O'zbek tili markazida ikki oy o'zbek tilini intensiv tarzda o'qigandan keyin olindi. Respondentlarning yoshi turlicha bo'lib, 23 dan 65 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha yosh ko'rsatkichi 46,5 yoshni tashkil etdi. Demografik ma'lumotlarni aniqlash maqsadida quyidagi so'rovnomatuzildi.

(So'rovnomat)

Eslatma: BU MA'LUMOTLARNI TO'LDIRGAN RESPONDENTNING SHAXSI KO'RSATILMAYDI.
Quyidagi savollarga javob bering.

1. Jinsi: a- Erkak b- Ayol
2. Yoshi: _____
3. Siz kimsiz? Muvofiq javobni belgilang:
a-o'quvchi b-talaba c-ishchi d-nafaqaxo'r
4. Hozirda o'zbek tilini o'rganish kurslariga boryapsizmi?
a- Ha b- Yo'q
5. O'zbekistonda necha yildan beri yashaysiz? _____
6. O'zbekistonga kelishdan avval o'zbek tilini o'rganganmisiz (maktab, universitet)? a- Ha b- Yo'q
- i) Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, o'zbek tilini qanday o'rgangansiz? (Birdan ortiq javobni belgilashingiz mumkin.)
a- Universitetda (qancha vaqt davomida. _____)
b- Radio yoki Tv orqali
c- O'zbek tili kurslari orqali (qancha vaqt davomida. _____)
d- boshqa (aniq turni ko'rsating): _____
- ii) Yurtingizda necha yil o'zbek tilini o'rgangansiz? _____
7. O'zbekistonda o'zbek tili kurslariga borganmisiz?
a- Ha b- Yo'q
i) Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, qancha vaqt ekanini ko'rsating. _____
8. O'zbek tilini biladigan yoki o'zbekistonlik do'stlaringiz bormi?
a- Ha b- Yo'q
i) Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, ular bilan necha marta gaplashasiz?
a- bir haftada bir marta
b- bir haftada 2 va undan ortiq
c- bir oyda bir marta
d- bir oyda ikki marta

z- ayrim paytlarda

f-boshqa: _____

9. Qaysi paytda o'zbek tilida gapirasiz?

a- sinfda

b- sinfda va jamoat joylarida (ko'chada, xiyobonda)

c- sinfda, jamoat joylarida (ko'chada, xiyobonda) va uyda

10. O'zbek tilida gapira olasizmi? Bitta javobni tanlang.

a- Ha, juda yaxshi

b- Ha, biroz xatolar bilan

c- Ha, ko'pgina xatolar bilan

d- Yo'q, gapira olmayman.

11. O'zbek tilida yoza olasizmi? Bitta javobni tanlang.

a- Ha, juda yaxshi

b- Ha, biroz xatolar bilan

c- Ha, ko'pgina xatolar bilan

d- Yo'q, yoza olmayman.

12. O'zbek tili repetitoringiz bormi? a- Ha b- Yo'q

i) Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, necha marta u bilan uchrashasiz?

a- bir haftada bir marta

b- bir haftada 2 va undan ortiq

c- bir oyda bir marta

d- bir oyda ikki marta

z- ayrim paytlarda

f-boshqa: _____

ii) Qancha vaqt ekanini ko'rsating. _____ dan _____ gacha

13. Har kuni necha soat televizor ko'rasiz?

a- 30 daqiqadan kam

b- 30 daqiqadan 1 soatgacha

c- 1-2 soat

d- 2 soatdan ortiq

e- boshqa: _____

So'rovnoma natijasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turlar	Sonda (%)
<i>Jins</i>	
Erkak	9 (69.2)
Ayol	4 (30.8)
<i>Ijtimoiy holati</i>	
O'quvchi	0 (0)
Talaba	1 (7.7)
Ishchi	5 (38.5)
Nafaqaxo'r	7 (53.8)
<i>O'zbek tilida gapirish muhiti</i>	
Faqat sinfda	3 (23.6)
Sinfda va jamoat joylarida	7 (53.8)
Sinfda, jamoat joylarida va uyda	3 (23.6)
<i>O'zbek tilida gapira olishi</i>	
Ha, juda yaxshi	2 (15.0)
Ha, biroz xatolar bilan	8 (61.5)
Ha, ko'pgina xatolar bilan	3 (23.5)
Yo'q, gapira olmayman	0 (0)
<i>O'zbek tilida yoza olishi</i>	
Ha, juda yaxshi	0 (0)

Ha, biroz xatolar bilan	9 (69.2)
Ha, ko'pgina xatolar bilan	4 (30.8)
Yo'q, yoza olmayman	0 (0)
<i>Kunlik Tv soati</i>	
30 daqiqadan kam	4 (30.8)
30 daqiqadan 1 soatgacha	5 (38.4)
1-2 soat	0 (0)
2 soatdan ortiq	0 (0)
Javob berilmagan	4 (30.8)

O'zbek tilida morfemalarning aniqlik tartibini aniqlash maqsadida koreys respondentlarida tarjima testi o'tkazildi. Tarjima testi sodda gaplar (24) hamda bog'langan qo'shma gap (3) ko'rinishida (darak, so'roq, inkor), tarjimada o'zbek tilidagi muayyan qo'shimchalardan foydalanishni talab etadigan holatda tuzildi. O'zbek tilidagi gaplar koreys tiliga tarjima qilindi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti O'zbek tili markazi koreys tili o'qituvchisi bilan gaplarning to'g'ri tarjima qilinganligi qayta ko'rib chiqildi. Tarjima testi jami 27 ta gapdan iborat. Tarjimada respondentlarni ikkilantiruvchi yoki

tarjima jarayonida tushunmovchilik yuzaga kelmasligi uchun kundalik – ular har kuni duch kelishi mumkin bo'lgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzildi. Tuzilgan gaplar o'zbek tilidagi 11 ta morfema, ya'ni otga qo'shiluvchi ko'plik (-lar), I shaxs egalik qo'shimchasi (-(i)m), qaratqich kelishigi (-ning), tushum kelishigi (-ni), jo'nalish kelishigi (-ga), o'rin-payt kelishigi (-da), chiqish kelishigi (-dan); fe'lga qo'shiluvchi umumzamon qo'shimchasi (-a/y), hozirgi zamon (-yap), o'tgan zamon (-di); sifatning qiyosiy darajasi (-roq) qo'shimchalardan foydalanishni taqazo etadi. Gaplarning o'zbek tilidan koreys tiliga qilingan tarjimasi uchun 2-jadvalga qarang.

2-jadval

O'zbek tili	Koreys tili
1. Akamning bo'yi mening bo'yimdan uzunroq.	(나의) 오빠는 나보다 키가 크다.
2. Mening onam – o'qituvchi.	(나의) 어머니는 선생님이시다.
3. Bugun bozorga borasanmi?	너 오늘 시장에 갈 거니?
4. Men O'zbekistonda yashayman.	저는 우즈베키스탄에 살아요.
5. U maktabga boradi.	그는/그녀는 학교에 간다/갈 것이다.
6. Uyda kitoblar bor.	집에 책이 있어요.
7. Bolalar mashinalarni ko'rdilar.	아이들이 차를 보았습니다.
8. Bizning uyimiz katta.	우리 집은 커요.
9. Olma uzumdan shirinroq.	사과는 포도보다 더 달콤합니다.
10. Sizning dadangiz ishlaydimi?	아버지께서는 일을 하세요?
11. Men kitoblarni o'qiyapman.	저는 책(들)을 읽고 있어요. 저는 책을 읽고 있어요.
12. U uxlamayapti.	그는 자지 않고 있다.
13. Ularning kiyimlari bizning kiyimlarimizdan chiroyliroq.	그들의 옷은 우리들의 옷보다 더 아름답습니다.
14. Siz yig'layapsizmi?	당신은 울고 있습니까?
15. Menda qizil va ko'k qalamlar bor	내게는 빨간색과 파랑 색 펜이 있다.
16. Sen ishlamayapsan.	너는 일하지 않고 있다.
17. Siz kitobni o'qiyapsizmi yoki daftarga yozyapsizmi?	(당신은) 책을 읽고 있나요 또는(=아니면) 공책에서 뭔가를 쓰고 있나요?
18. Men ishga bormayman.	나는 일하러 가지 않아요.

19. Menga gullar yoqadi.	나는 꽃을 좋아한다.
20. Mening kompyuterim ishlamayapti.	내 컴퓨터가 작동하지 않고 있다.
21. Uning onasi va otasi – shifokor.	그의(그녀의) 어머니와 아버지는 의사입니다.
22. Sen o'qiysanmi yoki ishlaysanmi?	너는 공부하니 또는(=아니면) 일하니?
23. Bog'imizda sizning opangiz va ukangiz ishlayaptilar.	정원에서 당신의 언니와 남동생이 일하고 있어요.
24. Kecha Koreyadan keldim.	저는 어제 한국에서 왔어요.
25. Ular olmani yedilar, lekin Akmal yemadi.	그들은 사과를 먹었다, 그러나 아크말은 먹지 않았다.(=그들은 사과를 먹었지만 아크말은 먹지 않았다)
26. Siz bu kitobni o'qidingizmi?	당신은 이 책을 읽었습니까?
27. Biz uyga vazifani bajardik.	우리는 숙제를 했다.

Ushbu testda har bir grammatik qo'shimcha eng kamida 3 marta va eng ko'p 10 marta uchraydi, ya'ni gaplar tarkibidagi ishtiroki 3-10 tani tashkil etadi.

№	Qo'shimchalar	Umumiy soni	Ularning qaysi gap tarkibida kelishi
1	-lar	8	6, 7, 7, 11, 13, 13, 15, 19
2	-(i)m	4	1, 1, 2, 20
3	-ning	10	1, 1, 2, 8, 10, 13, 13, 20, 21, 23
4	-ni	6	7, 11, 17, 25, 26, 27
5	-ga	6	3, 5, 17, 18, 19, 27
6	-da	4	4, 6, 15, 23
7	-dan	4	1, 9, 13, 24
8	-a/y	8	3, 4, 5, 10, 18, 19, 22, 22
9	-yap	8	11, 12, 14, 16, 17, 17, 20, 23
10	-di	6	7, 24, 25, 25, 26, 27
11	-roq	3	1, 9, 13

Respondentlardan koreys tilidagi gaplarni o'zbek tiliga 30-40 daqiqa davomida tarjima qilish topshirildi. Tarjima jarayonida lug'at yoki qo'shimcha boshqa resurslardan foydalanmasliklari so'raldi (3-jadval).

3-jadval

Koreys tili	O'zbek tilida tarjimasini
1. (나의) 오빠는 나보다 키가 크다.	
2. (나의) 어머니는 선생님입니다.	
3. 너 오늘 시장에 갈 거냐?	
4. 저는 우즈베키스탄에 살아요.	
5. 그는 그녀는 학교에 간다 갈 것이다.	
6. 집에 책이 있어요.	
7. 아이들이 차를 보았습니다.	
8. 우리 집은 커요.	
9. 사과는 포도보다 더 달콤합니다.	
10. 아버지께서는 일을 하세요?	
11. 저는 책(들)을 읽고 있어요. 저는 책을 읽고 있어요.	
12. 그는 자지 않고 있다.	
13. 그들의 옷은 우리들의 옷보다 더 아름답습니다.	
14. 당신은 울고 있습니까?	
15. 내게는 빨간색과 파랑 색 펜이 있다. (내게는 빨간색 펜과 파란 색 펜이 있다)	
16. 너는 알하지 않고 있다.	
17. (당신은) 책을 읽고 있나요 또는(=아니면) 공책에서 뭔가를 쓰고 있나요?	
18. 나는 알하려 가지 않아요.	

19. 나는 꽃을 좋아한다.	
20. 내 컴퓨터가 작동하지 않고 있다.	
21. 그의(그녀의) 어머니와 아버지는 의사입니다.	
22. 너는 공부하니 또는(=아니면) 일하니?	
23. 정원에서 당신의 언니와 남동생이 일하고 있어요.	
24. 저는 어제 한국에서 왔어요.	
25. 그들은 사과를 먹었다. 그러나 아크말은 먹지 않았다.(=그들은 사과를 먹었지만 아크말은 먹지 않았다)	
26. 당신은 이 책을 읽었습니까?	
27. 우리는 숙제를 했다.	

Tarjima jarayonida respondentlardan tarjimaning aniqlik darajasini ham belgilsh so'raldi, ya'ni gap aniq tarjima qilinmadi deb hisoblasa, 1 raqamini, gap tarjima qilindi, lekin juda aniq emas deb hisoblasa, 2 raqamini, gap aniq tarjima qilindi deb hisoblasa, 3 raqamini belgilashi kerakligi aytiladi. 4-jadvalga qarang.

4-jadval


Koreys tili	Tarjimaning aniqligi
1. (나의) 오빠는 나보다 키가 크다.	1 2 3
2. (나의) 어머니는 선생님이시다.	1 2 3
3. 너 오늘 시장에 갈 거냐?	1 2 3
4. 저는 우즈베키스탄에 살아요.	1 2 3
5. 그는/그녀는 학교에 간다 갈 것이다.	1 2 3
6. 집에 책이 있어요.	1 2 3
7. 아이들이 차를 보았습니다.	1 2 3
8. 우리 집은 커요.	1 2 3
9. 사과는 포도보다 더 달콤합니다.	1 2 3
10. 아버지께서는 일을 하세요?	1 2 3
11. 저는 책 들을 읽고 있어요 저는 책을 읽고 있어요	1 2 3
12. 그는 지지 않고 있다.	1 2 3
13. 그들의 웃음 우리들의 웃음보다 더 아름답습니다.	1 2 3
14. 당신은 울고 있습니까?	1 2 3
15. 내게는 빨간색과 파랑 색 펜이 있다. (내게는 빨간색 펜과 파란 색 펜이 있다)	1 2 3
16. 너는 알하지 않고 있다.	1 2 3
17. (당신은) 책을 읽고 있나요 또는(=아니면) 공책에서 뭔가를 쓰고 있나요?	1 2 3
18. 나는 알하려 가지 않아요.	1 2 3
19. 나는 꽃을 좋아한다.	1 2 3
20. 내 컴퓨터가 작동하지 않고 있다.	1 2 3
21. 그의(그녀의) 어머니와 아버지는 의사입니다.	1 2 3
22. 너는 공부하니 또는(=아니면) 일하니?	1 2 3
23. 정원에서 당신의 언니와 남동생이 일하고 있어요.	1 2 3
24. 저는 어제 한국에서 왔어요.	1 2 3
25. 그들은 사과를 먹었다. 그러나 아크말은 먹지 않았다.(=그들은 사과를 먹었지만 아크말은 먹지 않았다)	1 2 3
26. 당신은 이 책을 읽었습니까?	1 2 3
27. 우리는 숙제를 했다.	1 2 3

Tarjima testi morfemani foydalangani/ foydalanmaganligi hamda morfemani to'g'ri/ noto'g'ri qo'llanganligiga ko'ra darajalandi. Bu darajani aniqlash uchun Spearman's rho koeffisientidan foydalanildi, ya'ni talab etilgan morfemadan foydalanilmagan bo'lsa, 0 ball;

morfema mavjud, biroq noto'g'ri qo'llangan bo'lsa, 0,5 ball; morfema mavjud va u to'g'ri qo'llangan bo'lsa, 1 ball etib belgilandi. Ballar yig'ildi va morfemaning tarjima dagi umumiy soniga bo'lindi va 100 ga ko'paytirildi.

Tajriba natijasi 1-chizmada aks etgan:

1-chizma



Tajribadan quyidagi natija olindi. Unga ko'ra, qo'shimchalar *-a/y, -ni, -lar, -roq, -(i)m, -da, -dan, -di, -ga, -ning, -yap* shaklida tartiblandi. Aniqlangan tartib o'zlashtirish tartibi emas, balki aniqlik darajasi sifatida qabul qilinishi o'rinli, chunki tajriba ikki oylik o'zbek

tilini intensiv o'qitish jarayoni natijasi orqali aniqlandi. Bunday tajribalar keyinroq ham shu respondentlar bilan davom ettiriladi hamda tajribalar natijasi o'zlashtirish tartibini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Brown, D. (1994). Principles of language learning and teaching. Eaglewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Regents.
2. Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press.
3. Crystal, D. (1997). The Cambridge encyclopedia of language. New York, NY: Cambridge University Press.
4. Larsen-Freeman, D. (1976). An explanation for the morpheme acquisition order of second language learners. *Language Learning*, 26. P.125-134.
5. Brown, R. (1973) *A First Language*. Cambridge: Harvard Press.; De Villiers, J., & De Villiers, P. (1973). A cross-sectional study of the acquisition of grammatical morphemes in child speech. *Journal of Psycholinguistic Research*, 2, 267-278. <https://doi:10.1007/BF01067106>.
6. Dulay, H.C., & Burt, M. K. (1974). Natural sequences in child second language acquisition. *Language Learning*, 24(1), 37-53. <https://doi.org/10.1111/j.1467-1770.1974.tb00234.x>